

O‘ZBEKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING 1920-1930 YILLARDA DINIY ULAMOLARGA NISBATAN YURITGAN SIYOSATI

S.A. Xoshimov¹, Sh.T.Baltabayev²

Annotatsiya. Maqola O‘zbekistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi va mustahkamlanishi jarayonida bolsheviklar hukumati tomonidan diniy idora va dindorlarga nisbatan yuritgan cheklovlar, ta‘qib va tazyiq siyosatini birlamchi manbalar asosida ochib berishga bag‘ishlangan. Bundan tashqari, tadqiqot ishida markaz hukumatining diniy siyosatidan ko‘zlangan asosiy maqsadi, dindorlarga nisbatan qo‘llanilgan, siyosiy, iqtisodiy ta‘qiblar dindorlarning saylov huquqlaridan mahrum qilinishi masalalari arxiv ma‘lumotlariga tayangan holda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bolsheviklar, sovet, sez, partiya, din, dindorlar, ruhoniyyat, proletariat, madaniyat, masjid, madrasa, ateist, cherkov, mafkura.

Bolsheviklar hali hokimiyatga kelmaslaridan oldinoq dinni inkor qilgan edi. Ularning dinni xalq uchun afyundir deb e‘lon qilishi zamirida insoniyatning necha ming yillar davomida shakllangan e‘tiqodini chilparchin qilish g‘oyasi yotar edi. Bolsheviklar hokimiyatga kelgandan ko‘p o‘tmay, butun mamlakat bo‘ylab din va dindorlarga qarshi tashviqotni, ochiqdan – ochiq boshlab yubordi. Proletkult (yo‘ksillar madaniyati) tashkiloti dinga karshi kommunistlar g‘oyasini tashviq qiluvchi va amalga oshiruvchi muassasa vazifasini o‘tay boshladi. Eski jamiyatdan meros bo‘lib qolgan, ya‘ni millatlar necha asrlar davomida vujudga keltirgan barcha madaniy qadriyatlar, jumladan, madaniyat, adabiyot, din, e‘tikod, urf-odat, ananalar barcha-barchasi inkor etildi. Din hamda dindorlarga qarshi kurash muttasil ravishda, bosqichma-bosqich kuchaytirilgan holda olib borildi.

O‘zining ateistik hamda dinga qarshi faoliyatiga qaramasdan, bolsheviklar Turkistonda o‘z hokimiyatini o‘rnatilishining dastlabki yillarida din va dindorlarga munosabatda o‘ta ayyorona, ehtiyotkor siyosat olib bordi. 1917 yil oktyabr to‘ntarishidan so‘ng zo‘rluk bilan hokimiyatini olgan bolsheviklar siyosiy faoliyatlarida, ayniqsa, diniy siyosatni amalga oshirishda, madaniy sohalarni o‘z mafkura izmiga solishda doim Rossiya bolsheviklarining instruksiya va ko‘rsatmalariga og‘ishmay amal qilishgan edi.

Bolsheviklarning “madaniy” siyosati avval boshdan axloq, adabiyot, san‘atni milliy zamindan ajratib qo‘yishga, milliy fikrlash tarziga yot bo‘lgan “proletar madaniyati”, kommunistik mafkurani singdirishga safarbar qilindi. Bu mohiyatan tushunarli holdir. Sovet hokimiyati xalqimiz mentalitetini o‘zgartirmasdan kommunistik andozaga solmasdan turib, bu o‘lkada uzoq muddat qola olmasliklarini yaxshi bilar edilar. Buyuk ma‘naviyatimizga qarshi kurash siyosatini bolsheviklar birdaniga emas, xufiyona va oshkora bosqichma-bosqich amalga oshirib bordilar.

¹ Andijon davlat universiteti dotsenti

² Andijon davlat universiteti talabasi



RSFSR Xalq Komissarlari Soveti (XKS) 1917 yil 20 noyabrda eʼlon qilgan “Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga” murojaatida: “Sizning din va urf – odatlaringiz, sizning milliy va madaniy muassasalaringiz bundan buyon erkin va daxlsiz deb eʼlon qilinadi. Oʻz milliy turmishingizni erkinlik bilan va bahuzur tuza beringiz. Shunday qilishga xaqlisiz. Bilinki, sizning huquqingiz ham Rossiyadagi barcha xalqlarning huquqi kabi revolyutsiya va uning organlari boʻlgan ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetining butun qudrati bilan himoya qilinadi”[1.283], deb eʼlon qilgani holda haqiqiy xayotda buning aksi boʻldi.

RSFSR XKSning 1918 yil 2 yanvardagi “Cherkovni davlatdan maktabni cherkovdan ajratish toʻgʻrisida”gi dekreti asosida Turkistonda ham ateistik ekstremizm siyosati faol ravishda oʻtkazila boshlandi.

Turkistondagi sovet hokimiyatining dinga qarshi ateistik siyosati dastavvalidayoq mahalliy aholi orasida noroziliklarni keltirib chiqardi. Bunday sharoitda bolsheviklar jamiyatda kuchli mavqega ega boʻlishmagani, oʻlkadagi oʻzlarining siyosiy hokimiyatini mustahkamlash rejasi ularga din va dindorlarga nisbatan siyosatini oʻzgartirishga majbur etdi. Islom dini Oʻrta Osiyo xalqlari madaniy qadriyatlarining asosini tashkil qilishini yaxshi bilgan bolsheviklar, dinga qarshi ochiq kurash, yani uni ochiqdan-ochiq inkor etish emas, balki zimdan kurash taktikasiga oʻtgan edi.

Dinga va dindorlarga qarshi siyosat masalasidagi yangi qadam 1921 yil 9 avgustda qabul qilingan RKP (b) MKning “dinga qarshi tashviqot olib borish masalalariga doir” koʻrsatmasi boʻldi. Partiyaning dasturiga muvofiq partiya xodimlarining diniy muassasalar bilan aloqa qilishi taʼqiqlanib, ularga faol ateistik tashviqot va targʻibot olib borishi uqtirildi, shuningdek, partiya saflariga diniy muassasa xodimlari va ular bilan aloqador kishilarning kirib qolishiga yoʻl qoʻymaslikka chaqirdi. 1923 yildan boshlab Turkiston MIQ qarori asosida joylarda diniy marosimlarda qatnashgan va dindorlar bilan aloqada boʻlgan partiya xodimlarini partiya saflaridan chiqarish boshlandi.

1926 yilning 30 aprelida VKP(b) Markaziy qoʻmitasi huzurida boʻlib oʻtgan partiya kengashida dinga qarshi targʻibot tezislari[2.269] qabul qilinadi. Markazqoʻm belgilab bergan vazifalar joylarda ortigʻi bilan ado etishga kirishiladi. Oʻz KP(b) Markaziy qoʻmitasining maʼsul kotibi Burnashev 1927 yil 7 avgustda “Shaxsan Okrug partiya qoʻmitalari maʼsul kotiblariga” bergan 02237-M raqamli “oʻta maxfiy” yoʻriqnomasida “istisnosiz, faqat ijroiya byuroning yopiq yigʻilishlarida dinga qarshi kurashning qator masalalari koʻrib chiqilsin”[2.269], - deb koʻrsatma beradi.

1927 yil 16-24 noyabrda Samarqand shahrida boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston Kompartiyasining III sʼezdi “Din va dinga munosabat” masalasida ikkita rezolyutsiya qabul qilib, ushbu rezolyutsiyalar “partiya aʼzolari ichidagi yaramas hollar va siyosiy oqartuv ishlari” deb nomlandi[3.251].

Sʼezd rezolyutsiyalarida “maktab, qizil burchak, qizil choyxona, klublar, dehqonlar uyi, agronomiya markazlari va xudosizlar yacheykalari dinga qarshi tashviqot markaziga aylanishi kerak” deb taʼkidlandi[3.251]. Ushbu bilan bir qatorda, faollar orasida diniy-maishiy urf-odatlariga – xatna qilish, diniy dafn marosimlari oʻtkazish, mozorlarni ziyorat qilish, nikoh oʻqitish va hakoazolarga qarshi kurash olib borish lozimligi talab qilindi[3.251].

Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy qoʻmitasining 1927 yil 13-15 iyunda Samarqand shahrida boʻlib oʻtgan VI plenumida OʻzKP Markaziy qoʻmitasining maʼsul kotibi Akmal Ikromov “Ruhoniylar va maktab haqida” maʼruza qildi[4.301-305].

Oʻz KP(b) Markaziy qoʻmitasining VI plenumi islom dini va unga munosabat masalasida asosiy gʻoyaviy kurash asoslarini belgilab bergan yoʻnalish boʻlgan edi. VKP(b) Markaziy qoʻmitasi Oʻrta Osiyo byurosining XIII plenumi “qarorlarini rivojlantirish va aniqlashtirish”da dinga qarshi tashlangan katta qadam boʻlgan VI plenumda: “Islom boshqa dinlar kabi madaniyatni rivojlantirish yoʻlida proletariat gʻoyalarini mustahkamlash va sotsializm qurilishida katta toʻsiq hisoblanadi” degan qarorga kelinadi. “Eshonlik esa patriarxal-feodal jamiyatning asosiy gʻoyasi oʻlaroq, Oʻzbekistonning qoloq



viloyatlarida, ayniqsa, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazmda chuqur ildiz otgan”,[4.305] – deb ko‘rsatiladi.

O‘zbekiston KP(b) Markaziy qo‘mitasi ijroiya byurosining 1927 yil 21 iyulda o‘tkazilgan yopiq majlisida 104-qaror qabul qilinadi va dinga qarshi muntazam olib boriladigan kurash mohiyati belgilab beriladi. Jumladan, unda, “okruglar firqa qo‘mitalariga qat’iyan ta’kidlansin va ko‘rsatilsinki, din bilan kurash olib borishda asosiy tadbirlarni amalga oshirishda O‘z KP(b) Markaziy qo‘mitasining VI plenumi qarorlariga og‘ishmay amal qilinsin. Markazqo‘mning qo‘shimcha qarorlaridan 1927-1928 yil qish mavsumida foydalanish davom etib, kelgusi yilning kuziga qadar barcha ichki tayyorgarlik ishlariga asos qilib olish kerak bo‘ladi.

Hozirgi paytda din bilan kurashdagi barcha ishlar faol tashviqot yuritish va tushuntirishga qaratilgan bo‘lib, ommaga ta’sir o‘tkazish va o‘rtahollarni og‘dirib olishni maqsad qilib qo‘yish kerak, bunda boylar va sovetlarga qarshi unsurlarni, sovetlarga dushmanlik, bosmachilarga yon bosish, ig‘vogarlik illatlarini fosh etish asosiy e’tiborda tutilishi lozim”,[2.270-271]– deyiladi.

“Konservativ ruhoniylar,– deyiladi VI plenumning “maxfiy” rukni ostidagi qarorida, savdogarlar tabaqasining taniqli qismida, chorvadorlar va quloqlar orasida tomir yoygan bo‘lib, inqilobga qadar bo‘lgan davrlarda egallagan marrasini hali oxiriga qadar qo‘ldan chiqargan emas. O‘zbekistonda dinga qarshi masalalar partiya a’zolari o‘rtasida zarur darajada qo‘yilgan emas edi. Har bir partiya a’zosi, ayniqsa, faollar tushunib yetishi kerakki, kommunizm va din o‘zaro ko‘ndalangiga qarama-qarshi bo‘lib, ularni bir butun holda birlashtirish mutlaqo mumkin emas. “Kim din tarafdori bo‘lsa, u partiya a’zosi bo‘lishi mumkin emas”- shiori hayotga tadbiiq etilishi lozim...”[2.269].

Ushbu qaror asosida joylarda dinga qarshi keng targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borildi. OGPU organlari esa diniy idoralar va dindorlar faoliyatini qat’iy nazorat ostiga oldi. Diniy ulamolar orasiga o‘z odamlarini kiritib yoki ayg‘oqchilar yollab diniy marosimlar va dindorlar ichidagi vaziyat haqida ma’lumotlar to‘plab bordilar.

1928 yilning fevral oyida O‘zbekiston Kompartiyasi MIQ targ‘ibot-tashviqot bo‘limining respublikada dinga qarshi faol tashviqot olib borish uchun 1928 yil “Xudosizlar” jurnali ta’sis etildi. Jurnal bir oyda bir marotaba 3000 nusxada, 3-4 bosma taboq hajmda, arab imlosida chop etish haqida maxsus qarori chiqdi[15.31]. 1929 yil 1 fevraldan boshlab “Xudosizlar” jurnali lotin imlosida o‘zbek tilida chop etila boshlandi[16.98]. Keyinroq “O‘zbekiston xudosizlari” (“Ozbekistan xudasizlari”), “Xudosiz” (“Xudasiz”) nomli gazetalar chop etildi. Ushbu gazeta va jurnallardagi maqola va feletonlar orqali dinga va ruhoniyat vakillariga qarshi tashviqot olib borildi. Jumladan, “Xudosiz” (“Xudasiz”) gazetasida “Butxonalar frontda”, “Dinga qarshi zarba berajak” (B.Zaxd maqolasi) sarlavhali maqolalarda dinni eskilik sarqiti sifatida qoralab, masjidga borib namoz o‘qishlar xurofot deb uqtiriladi[17.].

O‘zbek xalqi e’tiqod-qadriyatlariga qarshi kurashda mumtoz choyxonalar ham kurash maydoniga aylantiriladi. 1925 yilning yanvar oyida respublika hududida 25 ta “qizil choyxonalar” ochilib, kerakli adabiyotlar, gazeta va jurnallar bilan ta’minlangan[5.130]. Har bir qizil choyxonada “Lenin burchaklari” tashkil etilib, unda Leninning asarlari, portretlari, fotosuratlari, hayoti va faoliyatidan hikoya qiluvchi plakatlar targ‘ib qilindi. Diniy qadriyatlarga qarshi “Dinga qarshi kurashda komsomol”, “Dinga qarshi kurash sotsializm uchun kurashdir” kabi shiorlar ilib qo‘yildi[18.].

1926 yilga kelib O‘zbekistonda 177 ta qizil choyxona faoliyat ko‘rsatar edi[19.49]. Aholini qizil choyxonalariga jalb qilish maqsadida sovet davlati tomonidan turli xil tadbirlar ham olib borildi. Jumladan, 1925-1926 yillarda O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida yuz bergan qurg‘oqchilik oqibatida sodir bo‘lgan qiyin sharoitda qizil choyxonalarda aholiga arzon narxda oziq-ovqat mahsulotlarini sotish ishlari tashkillantirildi.



1929 yildan O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan qizil choyxonalarda xudosizlar yacheykalari ham tashkil qilinadi[20.7]. Xudosizlar uyushmasining 3300 ta quyi tashkilotlari bo‘lib, ularda 12 ming kishi birlashgan edi[21.19].

1930-1935 yillarda respublikaning 362 ta madaniy klubi, 2560 ta qizil choyxonasi, 5 ta xotin-qizlar klubi va 12 ta madaniy istirohat bog‘i dinga qarshi targ‘ibotchilik o‘choqlari sifatida xizmatda bo‘ldi[22.5]. Qizil choyxonalar faoliyati, ularning dinga qarshi olib borayotgan targ‘iboti masalalari doimiy nazorat qilib borilgan. “Qizil choyxonalarda dinga qarshi kurash yo‘lga qo‘yilsin” nomli 1931 yil “Xudosiz” (“Xudasiz”) gazetasida e‘lon qilingan maqolada Farg‘ona viloyatining ko‘plab shahar va qishloqlaridagi qizil choyxonalarining dinga qarshi tashviqot yurgizuvchi gazeta va jurnallar bilan ta‘minlanmaganligi tanqid ostiga olingan[23].

Sovet hokimiyati diniy ulamolarga va xizmatchilarga nisbatan iqtisodiy hamda siyosiy ta‘qiblarni amalga oshirib, ularni ham ma‘nan ham iqtisodiy jihatdan sindirishga harakat qildi. Bu esa ruhoniya vakillari noroziligini oshirib bordi. 1925 yil martida Namangan uyezdining Axsi-Shaxand, Pop volostlarida diniy ulamolar va oddiy xalqning sovet hokimiyatining musulmon dini, shariat qonun-qoidalarini toptayotgani, dindorlarga nisbatan ta‘qib kuchayib borayotganidan norozilik chiqishlari uyushtirdilar. Unda shariatga yashashga ruxsat berishni talab qildilar. Namoyish qatnashchilaridan bir guruhi GPU xodimlari tomonidan hibsga olingan[5.196].

Dindorlarga qarshi kurashda sovet hokimiyati sinovdan o‘tgan asosiy metodlardan biri iqtisodiy iskanjaga olish yo‘lidan ham keng foydalandi. Bunga uning 1920-1930 yillarda dindorlarga qarshi kurashda iqtisodiy ta‘qib choralari kuchaytirish yuzasidan qabul qilgan qarorlari andaza bo‘la oladi.

Dindorlarga qarshi iqtisodiy ta‘qibning ko‘rinishlaridan biri bu ularni soliqqa tortilishi edi. Ko‘rsatilgan tartibda diniy xizmatchilar ham quyidagi soliqlarni to‘lashga tortildi: qishloq xo‘jaligi solig‘i, asosiy (sinfy) yondashuv mol-mulkdan olinadigan, mulkiy naqd pul solig‘i, tenglashtiruvchi yig‘im, mahalliy yig‘im, fuqarolik badali, jon boshiga olinadigan soliq, harbiy majburiyat solig‘i, birdaniga to‘lanadigan soliq, o‘sib boruvchi soliq. Undan tashqari 1923-1924 yillarda mahalliy volost va uyezd soliq komissiyalari besh so‘mlik ikkita, biri davlatniki, ikkinchisi yutuq pullik lotereyalar chiqarib, ularni majburiy tarqatar edilar[6.196-197].

Diniy muassasalardan qishloq xo‘jalik solig‘i bilan birgalikda ish hayvonlari va mol-mulkdan alohida soliq naqd pulga mol boshiga hamda hayvonlar turiga qarab olingan. Mulkiy naqd pul solig‘i dindorlardan 14 rubl 40 tiyindan, undan tashqari tenglashtiruvchi yig‘im solig‘i ham qo‘shib undirilgan. Uni mahalliy idoralar belgilab, 10 rubldan boshlab ijtimoiy ahvoliga qarab ortib borgan. 1930 yil 5 yanvarda SSSR Moliya XK qarori bilan barcha diniy idoralar va tashkilotlar o‘zlari foydalanayotgan bino va yer maydonlari uchun oshirilgan tartibda soliqqa tortildilar[7.11].

Diniy ulamolarga nisbatan iqtisodiy hamda siyosiy jazo choralari qo‘llash 1927-1928 yillarda yanada kuchaydi. Masalan, Toshkent shahar Hazrati Imom (Hastimom) mahallasida 1858 yilda tug‘ilgan Tilla Shayx masjidini imom-xatibi Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxonni 1928 yil Yalang‘och mavzesidagi yerlari va mol-mulki musodara qilinadi. Farzandlari maktabdan haydaladi. O‘zi militsiya kuzatuv ostida bo‘ladi[10.65-67].

Saylash va saylanish huquqi “Sho‘rolarga saylash to‘g‘risida”gi 6-bo‘limning 13-bobi 92–93-moddalarida belgilangan[13.210]. O‘zbekiston SSR MIQning 1927 yil 12 dekabrda “Sho‘rolarga saylov to‘g‘risida dasturilamal”ida esa saylov huquqidan foydalanilmadiganlarga tavsif berilgan[13.210]. Unga ko‘ra, foyda olish maqsadida yollanma mehnatdan foydalanuvchi, mehnatsiz topilgan daromadlar (sarmoyadan kelgan foizlarga, savdo korxonalaridan kelgan daromadga, mulkdan kelgan unumlar) hisobiga yashovchilar, savdogarlar, diniy xizmatchilar, sobiq mirshablar va boshqa toifadagilar qonun bo‘yicha saylov huquqidan mahrum qilinishi ko‘rsatilgan.



Samarqandda 1929 yilda 18 yoshga to'lgan saylovchilarning soni 86 981 kishini tashkil etgan bo'lib, shundan 8772 kishi saylov huquqidan mahrum qilingan. Bu saylovchilar umumiy soning 11,2 foizini tashkil etadi. Saylov huquqidan mahrum qilinganlardan 471 nafari tadbirkorlar va 419 nafari mehnatsiz daromad hisobiga yashayotganlar deb topilgan, 4464 nafari savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchilar, 150 nafari sobiq mirshablar hamda Rossiya imperiyasi va amirning amaldorlari bo'lgani holda 621 nafari imomlar va boshqa ruhoniylar ham saylov huquqidan mahrum etilgan edi[14.431-432].

Saylov huquqidan mahrum qilinganlar nafaqat siyosiy, balki fuqarolik xuquqlaridan ham mahrum qilindilar. Ular ish joylaridan bo'shatildilar, kasaba uyushmalari va kolxozlarga a'zolikka qabul qilinmadilar, tovar va oziq-ovqat mahsulotlari olish kartochkalari berilmadi, biron-bir lavozimga tayinlanishi yoki oliy va o'rta maxsus bilim yurtiga o'qishga kirishi mumkin bo'lmadi[13.213]. Undan tashqari 1930 yil avgustda qabul qilingan "Fuqarolarni bandligini ta'minlash" to'g'risidagi BMIQ qaroriga muvofiq sobiq diniy idora xizmatchilarining ishga joylashuvi ham muammo ostida qoldi. Diniy xizmatchilar endi ishga joylashish istagida yashash joyini hatto familiyasini ham o'zgartirishga majbur bo'lar edi. Agarda shunday qilib ishga joylashib olganda ham, ular zararkurandalikda ayblanib, hibsga olinar edi.

Dinga qarshi vahshiylarcha munosabat tufayli islom dini va ma'naviyatini mukammal egallagan, imoni butun, halol va vijdoni pok yuzlab shaxslar qamaldi, qatag'on qilindi yoki mamlakatdan haydaldi. Sovet hokimiyati jazo organlari diniy xizmatchilarni ta'qib qilishni to'xtatmadilar.

OGPUning O'rta Osiyodagi Muxtor vakilligining 1927 yil 30 noyabrda bergan ma'lumotida Buxoro viloyati Karmana tumani Tashrobot qishlog'idan machit imomi Ahmedov Saidkomil, o'sha qishloqdan 1904 yil tug'ilgan Saidov Mullayodgor imom kotibi, Tashrobod qishlog'idan 1899 yilda tug'ilgan Ergashev Yo'ldosh dindor, mulla, Varrak qishlog'ida 1905 yil tug'ilgan mahalla imomi Idrisov Bahromlarni ruhoniylarning isyonchilik harakatlarida muntazam qatnashgani, sovet tuzumi olib borayotgan siyosatga qarshi tashviqot olib borgan, "bosmachilar"ni g'oyaviy ruhlantirganlikda ayblanib, 5 yilga surgun qilingan[8.123].

XX asrning 30 yillarida sovet hokimiyati qatag'on siyosatining qurboni bo'lgan ruhoniyat vakillaridan Ochilov Po'lat qoridir. U 1897 yil Asaka tuman Qoratepa qishlog'ida tug'ilgan, o'zbek. 1932 yil 19 mayda OGPUning O'rta Osiyodagi doimiy vakilligi "uchligi"ning hukmiga ko'ra Ochilov Po'latni 1926 yilgacha domla-imom bo'lib ishlagan, otasi ham diniy ulamo bo'lgan, sovet tuzumiga qarshi chiqqan, kolxozlashtirishga qarshi tashviqot olib borgan, deb 10 yilga qamoq jazosi tayinlangan[7.95].

Andijon okrugi Marxamat tuman Qorabog'ish qishlog'ida masjid imomi Ergashev Yo'ldosh Qori (1899 yilda Andijon okrugi Marxamat tuman Qorabog'ish qishlog'ida tug'ilgan, o'zbek, masjid imom-xatibi) ham GPU hodimlari tomonidan 1931 yil 21 avgustdaqamoqqa olingan. 1931 yil 24 oktyabrda OGPU ning O'rta Osiyodagi doimiy vakilligi "uchligi"ning hukmiga ko'ra, ruhoniylarning isyonchilik harakatlarida muntazam qatnashgan, sovet tuzumi olib borayotgan siyosatga qarshi tashviqot olib borgan, "bosmachilar"ni g'oyaviy ruhlantirganlik kabi ayblovlar bilan 5 yilga surgun qilingan[8.78-79].

1932 yil 19 mayda OGPUning O'rta Osiyodagi Muxtor vakilligi "uchligi"ning hukmiga ko'ra Ochilov Po'latni 1926 yilgacha domla-imom bo'lib ishlagan, otasi ham diniy ulamo bo'lgan, sovet tuzumiga qarshi chiqqan, kolxozlashtirishga qarshi tashviqot olib borgan, deb 10 yilga, Imomov Toshniyoz imomning o'g'li, din peshvosiga, kolxozlashtirishga qarshi tashviqot olib borgan, deb 5 yilga, Muzaffarov Nurillamullani imomning o'g'li, 1926 yilga qadar masjidda qori bo'lib ishlagan, sovet hokimiyatining kolxozlashtirish siyosatiga qarshi kurash olib borgan, degan ayblar bilan 5 yilga ozodlikdan mahrum etiladi[9.89-120].



Ta'kidlash joizki, avvalo ta'qib va tazyiqqa uchragan diniy ulamolar, taqvodor kishilar vahshiylarcha munosabat tufayli o'z jonlarini hamda oilalari hayotini saqlab qolish uchun xorijga ketishga majbur bo'lganlar. 1917- 1934 yillarning o'zida O'rta Osiyodan 900 mingdan ortiq kishi xorijga chiqib ketgan. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, XX asr oxirlarida xorijda 3 millionga yaqin o'zbeklar yashayotgani, shundan 2 millioni o'zbekistonlik o'zbeklar ekani qayd etilgan[11.328]. Ana shunday muhojirlardan biri Muhammadjon Xushmoqov 1914 yilda Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Naymancha qishlog'ida tug'ilgan. 1928-1929 yillarda 14-15 yoshlarida madrasada o'qib yurganida madrasa berkilib, uning talabalari ta'qib ostiga olinganligi sabab Turkiyaga muhojir bo'lib ketgan[12.123].

Ta'qiblar ostida horijga chiqib ketgan diniy ulamolardan yana biri Abdulboqiy Ro'zi qori o'g'li oilasidir. U Andijon viloyati Asaka tumanida 1925 yilda tug'ilgan. Otasi Ro'zi qori Andijon madrasalarida talabalarga Qur'on va tajvid ilmidan saboq bergan. 1929 yil Ro'zi qori butun oilasini olib Qashqarga qochi borgan, 1933 yilda o'sha yerda vafot etgan. Abdulboqiy Ro'zi qori o'g'li esa 1959 yil O'zbekistonga qaytib 1993 yil vafot etgan[10.286-287].

Dinni, ruhoniylar va dindorlarni siyosiy va jismonan ta'qib qilish xalqning ma'naviy madaniyatiga katta zavol yetkazdi. Lekin, shunga qaramasdan, O'zbekiston xalqlari diniy e'tiqoddan, diniy qadriyatlardan mutlaqo voz kechmadi. Bolsheviklarning dinga qarshi zo'rvonligi va ta'qiblariga qaramay, bu e'tiqodni imkon darajasida saqlab qolishga harakat qildi. Dindorlar masjid va haq-huquqlaridan mahrum etilgan bo'lsalar ham, toat-ibodatlarini yashirincha davom ettiraverdilar. Masjid, madrasalarning yopilishi, ruhoniylarning qatag'on qilinishi aholi orasida umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni, milliy ma'naviyatni targ'ib qilish, qaror toptirish ishiga katta ziyon yetkazdi. Yosh avlod islom dini qoldirgan ulkan ma'naviy merosdan mahrum bo'ldi. Bu esa O'zbekistonning shu davrdagi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga shubhasiz, salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Xullas, XX asrning 20 yillari oxirlari 30 yillarning birinchi yarmida diniy ulamolar va ruhoniyat vakillari turli fuqarolik huquqlaridan ham mahrum etilib, turli muddatlarga qamoq, surgun azoblariga duchor qilindi. Masjidlar, madrasalar yopildi, ularning iqtisodiy ta'minoti bo'lmish vaqflar tugatildi, dindorlar ta'qib ostiga olindi. 1936-1938 yillarga kelib esa jazoni o'tab qaytib tinch hayotda mehnat qilayotgan diniy ulamolar, ruhoniylar o'tmishda "bosmachilar"ga yordam bergan, ularning g'oyaviy rahnamosi, "xalq dushmani", "sinfiy yot unsur" kabi ayblovlar asosida qaytadan qatag'on qilindilar.

Adabiyotlar:

1. Икромов А. О духовенстве и школе // Избранные труды в 3-х томах. Т.1. –Ташкент, 1972. -382 с.
2. Равшанов П. Қизил салтанат исканжасида. Тажовуз. (Хужжатлардаги тарих). Уч жилдлик. I-жилд. –Тошкент: Шарқ, 2011.- 487 б.
3. Ўзбекистон Коммунистик партияси съездлар, резолюция ва қарорлари. I том. – Тошкент, 1957. -561 б.
4. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК. Том первая 1925 – 1937. Ташкент: Узбекистан, 1987. – 667 б.
5. РИСТДА, 62-фонд, 2-рўйхат, 310-иш.
6. Известия ЦК КПСС. 1990. –№4.
7. РФДА, 5263-фонд, 2-рўйхат, 3-иш.
8. РИСТДА, 62-фонд, 2-рўйхат, 398-иш.
9. Среднеазиатский кишлак в годы Большого террора. (Составители Шамсутдинов Р.Т., Юсупов Э.Ю., Хошимов С., Дустматов Э.П.) – Андижон, 2007. – 500 с.
10. Ўзбекистон уламолари Тошкент: Movarounnahr, 2015. – 491 б.



11. Шамсутдинов Р. Қишлоқ фожиаси: жамолаштириш, кулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). Тошкент: Шарқ, 2003. – 542 б.
12. Хайитов Ш. Ўзбек муҳожирлиги тарихи (1917-1991 йиллар). – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2008. – 345 б.
13. Расулов Б. Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнларидаги сиёсий қатағонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи (1929 – 1959 йиллар). Тошкент: Sharq, 2012. – 367 б.
14. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб 1917-1939 йиллар. – Тошкент: O'zbekiston, 2019. -559 б.
15. Ўзбекистон Миллий архиви, 94-фонд, 2-рўйхат, 41-иш.
16. Ўзбекистон Миллий архиви, 94-фонд, 1-рўйхат, 642-иш.
17. Xudasiz, 1931, 13 февраль.
18. Xudasiz, 1931, 25 февраль.
19. Рўзматов А. Клуб муассасаларда ғоявий-сиёсий тарбия – Тошкент, 1982. -232 б.
20. Ўзбекистон Миллий архиви, Р-94-фонд, 8-рўйхат, 122-иш.
21. Макаров К. Отчетный доклад о деятельности Республиканской оргонизации “Курашчан худосизлар” за 1930-31 гг. – Т., 1931. – 87 с.
22. Ўзбекистон Миллий архиви, Р-94-фонд, 5-рўйхат, 1456-иш.
23. Xudasiz, 1931, 25 февраль.

